



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSİYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam	



BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI

Shoyev Davronbek Axmadjonovich

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

“Biznes boshqaruvi va moliya” kafedrası

katta o‘qituvchisi, PhD

ORCID: 0000-0002-1288-5235

E-mail: davronbrks@gmail.com

Abdullayeva Gulsanam

Farg‘ona davlat texnika universiteti

65-22M-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshqarish sifatining mohiyati va uni rivojlantirishning obyektiv zarurati ko‘rib chiqiladi. Boshqaruv sifatini oshirishning tashkilot samaradorligini yaxshilashdagi o‘rni, rahbarlik va ish jarayonlarida sifat nazoratining ahamiyati tahlil etiladi. Shuningdek, boshqaruv sifatini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi asosiy omillar va metodologik yondashuvlar yoritilgan.

Maqolada nazariy va amaliy yondashuvlar, adabiyotlar tahlili hamda mavjud tajribalar asosida boshqaruv tizimining istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Kalit so‘zlar: menejment, menejment sifati, an‘anaviy boshqaruv, boshqaruv tizimi, sifatni boshqarish, umumiy sifat menejmenti (TQM), boshqaruv faoliyati samaradorligi

Abstract. This article examines the essence of management quality and the objective necessity of its development. It analyzes the role of improving management quality in enhancing organizational efficiency, as well as the importance of quality control in managerial and operational processes.

The study also identifies key factors and methodological approaches that contribute to the development of management quality. Based on theoretical and practical approaches, literature analysis, and current experience, the article outlines directions for the improvement of management systems.

Keywords: management, management quality, traditional management, management system, quality management, total quality management (TQM), efficiency of management activities

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность качества управления и объективная необходимость его развития. Анализируется роль повышения качества управления в обеспечении эффективности организации, а также значение контроля качества в управленческих и производственных процессах.

Кроме того, определены основные факторы и методологические подходы, способствующие развитию качества управления. В статье представлены перспективные направления совершенствования системы управления, основанные на теоретических и практических подходах, анализе научной литературы и современном опыте.

Ключевые слова: менеджмент, качество управления, традиционное управление, система управления, управление качеством, всеобщее управление качеством (TQM), эффективность управленческой деятельности

KIRISH

Boshqaruv sifatining yuqori darajada bo‘lishi har qanday tashkilot yoki kompaniyaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda global raqobatning kuchayishi, texnologik taraqqiyotning jadallashuvi hamda mehnat resurslarining cheklanganligi sharoitida tashkilotlar uchun boshqaruv sifatini doimiy ravishda takomillashtirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Tashkilotlar va kompaniyalar o‘z faoliyatida yuqori sifatli boshqaruvni ta‘minlash orqali o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish, resurslardan samarali foydalanish va umumiy samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Boshqaruv sifatining mohiyatini ochishda uning asosiy tarkibiy qismlarini chuqur tahlil qilish muhim



ahamiyat kasb etadi. Jumladan, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, boshqaruv bilim va ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanganligi, xodimlarni jalb etishning zamonaviy usullarini qo'llash, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari, ijtimoiy samaradorlik hamda barqarorlik kabi elementlar alohida e'tibor talab qiladi.

Boshqaruv sifatini takomillashtirish jarayonida tizimli yondashuvni qo'llash, boshqaruv faoliyatini doimiy monitoring qilish mexanizmlarini joriy etish hamda ichki boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillar boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish va tashkilotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshqaruv sifati masalasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda turli yondashuvlar va metodologiyalar shakllangan. Jumladan, W. Edwards Deming tomonidan ishlab chiqilgan sifatni boshqarish nazariyasi, shuningdek Six Sigma metodologiyasi va ISO 9001 standartlari boshqaruv sifatini ta'minlash va nazorat qilishda keng qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, boshqaruv sifatining o'zgaruvchan omillari va zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda yangi ilmiy yondashuvlar ham taklif etilmoqda. O'rganilgan adabiyotlar boshqaruv tizimlarini doimiy ravishda takomillashtirish zarurligini asoslab beradi.

Sotsiolog-iqtisodchi Adam Hayes o'zining "Kompaniya boshqaruvini baholashda e'tiborga olish kerak bo'lgan omillar" nomli maqolasida menejmentni baholash murakkab jarayon ekanligini, faqat moliyaviy hisobotlar asosida to'liq xulosa chiqarish yetarli emasligini ta'kidlaydi [1].

Rose Johnson o'zining "Yaxshi boshqaruvning beshta sifati" maqolasida samarali menejmentning asosiy sifat ko'rsatkichlarini keltirib o'tadi va kuchli boshqaruv jamoasini shakllantirish muvaffaqiyatli tashkilotning muhim omili ekanligini qayd etadi. U boshqaruv fazilatlarini qatorida axloq, halollik va ishonchlilikni alohida ahamiyatga ega omillar sifatida ko'rsatadi [2].

James Morgan "Muvaffaqiyatli boshqaruv tizimining formulasi nima?" nomli tadqiqotida 34 ta mamlakatdagi 12 000 ta firma faoliyatini o'rganib, kuchli boshqaruv jarayonlariga ega tashkilotlar rentabellik, o'sish va barqarorlik kabi ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori natijalarga erishishini aniqlagan [3].

Amerikalik tadqiqotchi Harvey Leibenstein o'z ilmiy ishlarida "X-samarasizlik" (X-inefficiency) tushunchasini kiritgan. U XX asrning 60-yillarida AQSh biznesida resurslardan to'liq foydalanilmaslik holatlarini aniqlagan va ushbu hodisani X-samarasizlik deb izohlagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mavjud resurslardan yanada samarali foydalanish orqali korxonalar daromadini sezilarli darajada oshirish imkoniyati mavjud bo'lgan [4].

Rossiya ilmiy maktabida ham boshqaruv sifati masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar keng o'rganilgan. S. V. Mikheeva o'zining "Некоторые аспекты оценки качества управления" asarida manfaatdor tomonlar maqsadlarining boshqaruv sifatiga ta'sirini tahlil qilgan hamda ularning darajaviy tizimini asoslab bergan [5].

M. Svitkinning "Sifat menejmentidan — menejment sifatiga" asarida boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari orqali boshqaruv sifatini baholash yondashuvlarini o'rgangan. Muallif boshqaruv sifatini manfaatdor tomonlarning maqsadlariga erishish darajasi bilan bog'liq holda talqin qiladi, ya'ni boshqaruv sifati — bu boshqaruv jarayonining qo'yilgan talablar va maqsadlarga muvofiqlik darajasi sifatida izohlanadi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshqaruv sifatini rivojlantirishning samarali usullaridan biri — tashkilotning barcha darajalarida sifatni boshqarish va monitoring qilishning kompleks tizimini shakllantirishdir. Tashkilotlarda boshqaruv sifatini izchil oshirib borish uchun rahbariyat tomonidan sifat nazorati tizimlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, boshqaruv tizimlari doimiy ravishda o'zgarib borayotgan tashqi va ichki muhit sharoitlariga moslashuvchan bo'lishi lozim.

Tashkilotlar ichki jarayonlarni avtomatlashtirish va raqamlashtirish orqali boshqaruv sifatini sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatiga ega. Bu jarayon boshqaruv qarorlarini tezkor va asosli qabul qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda umumiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Boshqaruv sifati atamasi va uning mazmuni bilan bog'liq turli talqinlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun ushbu tushunchaning tarkibiy elementlarini tizimli ravishda tahlil qilish zarur. Boshqaruv sifatining mohiyatini umimlashtirgan holda, uni boshqaruv jarayonlarining kompleks natijasi sifatida quyidagi asosiy tarkibiy qismlar orqali ifodalash mumkin:

- boshqaruv qarorlarini to'plangan tajriba va tahliliy ma'lumotlar asosida qabul qilish zarurligi;
- boshqaruv bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini o'zida mujassam etgan jarayon;
- xodimlarni samarali jalb etish va ularning salohiyatidan to'g'ri foydalanish;
- boshqaruv samaradorligini ta'minlovchi kompleks va ko'p omilli jarayon;
- iqtisodiy tizim barqarorligini ta'minlovchi muhim mexanizm;



- boshqaruv apparati faoliyatining natijadorligi.

Boshqaruv sifatini aks ettiruvchi omillar va unga qo'yiladigan talablarni kompleks tahlil qilish orqali korxonalar faoliyatiga obyektiv baho berish mumkin. Bunda boshqaruv faoliyati samaradorligi, avvalo, unga qo'yiladigan talablarning korxonaga maqsadlari bilan uyg'unligiga bog'liq.

Korxonaga o'zining strategik missiyasidan kelib chiqib aniq maqsadlarni belgilashi, ushbu maqsadlarga erishishni ta'minlovchi operativ va taktik vazifalarni ishlab chiqishi zarur. Shu bilan birga, samarali korporativ muhitni shakllantirish orqali jamoa a'zolariga aniq yo'nalish va ko'rsatmalar berilishi boshqaruv sifatini oshiruvchi muhim omillardan biridir.

Zamonaviy yuqori reytingga ega korxonalarda boshqaruv faoliyatining muhim xususiyatlaridan biri — xodimlar uchun qulay, ijobiy va samarali ish muhitini yaratish hisoblanadi. Mazkur omil boshqaruv sifatini baholashda muhim mezon sifatida namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshqaruv sifati turli jihatlar va yondashuvlar nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi mumkin. Eng muhim yondashuvlardan biri iqtisodiy yondashuv bo'lib, unda boshqaruv sifati korxonaning biznesni muvaffaqiyatli yuritish qobiliyatining integratsiyalashgan ko'rsatkichi sifatida talqin etiladi. Boshqaruv sifati faoliyat maqsadlarini tanlash va asoslashda, mahsulot ishlab chiqarishning asosiy va yordamchi jarayonlariga ta'sir ko'rsatish usullarida, shuningdek, raqobat ustunliklarini aniqlash va shakllantirish jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchilar Vladimir Vinokurov va Aleksandr Vinokurov fikriga ko'ra, boshqaruv sifati — bu ichki va tashqi muhit omillariga ta'sir ko'rsatish vositalarini tanlash, integratsiyalash va kombinatsiyalash orqali korxonaning barqaror faoliyat yuritishi, rivojlanishi hamda raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zarur sharoitlarni yaratish imkoniyatini ifodalovchi xossalar majmuasidir. Oxir-oqibatda, bu raqobat ustunliklarini shakllantirish va ularni samarali amalga oshirish qobiliyati bilan bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, boshqaruv sifatini oshirish nafaqat menejment tizimidagi o'zgarishlar bilan, balki ushbu o'zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, boshqaruv sifatini faqat mahsulot sifati yoki uni yaratish jarayonlari bilan bog'lash to'liq tasavvur bermaydi¹. Xuddi shuningdek, uni faqat boshqaruv tizimining ichki xususiyatlari bilan cheklash ham yetarli emas. Boshqaruv sifati — bu axborot, mehnat va boshqa jarayonlarning tashkil etilishi bilan bir qatorda, korxonaning bozordagi natijadorligi, belgilangan maqsadlarga erishish darajasi, tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvchanligi, mahsulotlarning iste'molchilar ehtiyojlariga mosligi hamda qo'llanilayotgan strategiyalarning raqobatchilar harakatlariga mos kelish darajasi bilan ham belgilanadi.

Shu sababli boshqaruv sifatini baholashda ko'rsatkichlar tizimi korxonaning bozordagi faoliyati natijalarini ham qamrab olishi zarur. "Boshqaruv sifati" kategoriyasining mazmunini aniqlashda tadqiqot obyektini ko'p bosqichli yondashuv asosida, iyerarxik tuzilma sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi darajalar ajratiladi:

- korxonaga darajasida boshqaruv sifati;
- boshqaruv tizimi sifati (obyektning boshqarish sifati);
- funksional sohalar bo'yicha boshqaruv sifati (tadqiqot va ishlanmalar, ishlab chiqarish, marketing, xizmat ko'rsatish, moliya va boshqalar);
- resurslarni boshqarish sifati (moddiy, mehnat, axborot va boshqa resurslar);
- guruh ijrochilari mehnati sifati;
- alohida ijrochilar mehnati sifati.

Boshqaruv sifatini talqin etishga oid mavjud yondashuvlardan tashqari, ushbu tushuncha korxonalarni boshqarish samaradorligining muhim mezonlaridan biri sifatida ham qo'llaniladi. Boshqaruv sifati qo'llanilayotgan boshqaruv tizimining nafaqat statik, balki dinamik xususiyatlariga, ya'ni uning tuzilishi, faoliyat yuritish jarayoni, muayyan vaziyatlarda moslashuvchanligi hamda mikroiqtisodiy tizimning tez o'zgaruvchan ichki va tashqi muhit sharoitlarida barqaror faoliyat yuritish olish darajasiga bog'liq bo'ladi².

Peter Drucker boshqaruv sifatiga quyidagicha ta'rif beradi: "Boshqaruv sifati — bu tashkilotning resurslarni samarali boshqarish va o'z maqsadlariga eng kam xarajatlar bilan erishish qobiliyatidir"³. Ushbu yondashuvda muallif boshqaruv sifatining asosiy omili sifatida resurslardan oqilona foydalanish va xarajatlarni optimallashtirishni ta'kidlaydi.

1. Винокуров В., Винокуров А. Качество управления как фактор укрепления рыночных позиций предприятия // Стандарты и качество. – 2005. №12.-С.49-55.

2. Большой энциклопедический словарь. 2-е изд., перераб. и доп. – М., Норинт, 2004. – 1456 с.

3. «Руководство качеством» (The Quality Improvement Handbook) – 1919 й.



Frederick Taylor esa boshqaruv sifatiga boshqa nuqtayi nazardan yondashib, uni menejning mavjud resurslardan maksimal darajada samarali foydalanish hamda noaniqliklarni minimallashtirish orqali maqsadlarga erishish qobiliyati sifatida izohlaydi. Teylor boshqaruvda ratsionallik va aniqlikni ta'minlash orqali yuqori sifatga erishish mumkinligini asoslaydi.

Hozirgi globallashtirish sharoitida resurslarning cheklanganligi va ekologik muhitni asrash zarurati ortib borayotganligi sababli resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik xavfsiz energiya manbalarini tanlash korxonalar faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

James Herbert boshqaruv sifatini tashkilotning o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish, faktlar va tajribaga asoslangan qarorlar qabul qilish hamda vazifalarni o'z vaqtida va samarali bajarish qobiliyati⁴ sifatida ta'riflaydi. Ushbu yondashuvda muallif boshqaruvning adaptivligi, analitikligi va intizomiga alohida urg'u beradi.

Agar Peter Drucker, Frederick Taylor va James Herbert boshqaruv sifatiga asosan resurslar va samaradorlik nuqtayi nazaridan yondashgan bo'lsa, Gary Hamel boshqaruv sifatini inson omili bilan bog'laydi. Uning fikricha, boshqaruv sifati — bu menejmentning xodimlarni rag'batlantirish, ularni rivojlantirish va samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish qobiliyatidir⁵.

Zamonaviy tashkilotlarda boshqaruv faoliyatining barqarorligini ta'minlashda xodimlarning ishga bo'lgan munosabati muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Boshqaruv sifatining yuqori darajada bo'lishi xodimlarning motivatsiyasini oshiradi, mehnat unumdorligini yaxshilaydi, innovatsion g'oyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi hamda tashkilotga sodiqlikni mustahkamlaydi. Ushbu bog'liqlik ko'plab ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan bo'lib, samarali boshqaruvning uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur omillarni inobatga olgan holda, korxonalarda mehnat jamoasini boshqarishda kombinatsiyalashgan usullardan foydalanish, xodimlarni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish hamda ijobiy tashkiliy madaniyatni shakllantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, boshqaruv sifatini oshirishda quyidagi omillar alohida ahamiyatga ega:

- Rahbarlik sifatini oshirish — yuqori boshqaruv darajasida qarorlar qabul qilishda zamonaviy va asoslangan yondashuvlardan foydalanish;
- Mehnat jamoasini motivatsiya qilish — samarali kommunikatsiya va rag'batlantirish tizimini shakllantirish;
- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish — boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirish;
- Sifatni boshqarish tizimlarini rivojlantirish — ISO 9001 va Six Sigma kabi standart va metodologiyalardan samarali foydalanish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshqaruv sifatini rivojlantirish tashkilotning umumiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Samarali boshqaruv tizimlarini shakllantirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish hamda xodimlar motivatsiyasini oshirish orqali boshqaruv sifatini yanada takomillashtirish mumkin. Shu nuqtai nazardan, kelajakda boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Tashkilotlar o'z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishi, raqobatbardoshlikni oshirishga yo'naltirilgan strategiyalarni izchil amalga oshirishi lozim.

Sanoat korxonalarida boshqaruv jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Eng avvalo, korxonaning strategik maqsadlariga erishishda xodimlarga samarali yetakchilik qila olish muhim omil bo'lib, u boshqaruv jarayonlariga bevosita va kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, boshqaruv jarayonlariga tizimli va jarayonli yondashuvni joriy etish korxonaning tashkiliy-ijtimoiy faoliyatini tartibga solish va samarali boshqarish imkonini beradi. Sanoat infratuzilmasidagi ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash mumkin. Shu bilan birga, integratsiyalashuv jarayonlari ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyatini tizimlashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, boshqaruv sifatini oshirish korxonalar faoliyatining barcha darajalarida kompleks yondashuvni talab etadi. Bu esa tashkilotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda yuqori natijalarga erishish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

4 «Лидерство» (Leadership: What It Is, What It Takes, and How It Develops) – 1977 й.

5 «Лидерство без рангов» (The Future of Management) – 2011 й.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adam Hayes. (2020). *Factors to Consider When Evaluating Company Management*. Investopedia. URL: <https://www.investopedia.com/articles/02/062602.asp> (accessed: 11.02.2022)
2. Rose Johnson. (2019). *Five Qualities of Good Management*. Chron.com. URL: <https://smallbusiness.chron.com/five-qualities-good-management-25297.html> (accessed: 11.02.2022)
3. James Morgan. (2018). *What's the Formula for a Successful Management System?* Business Blog. URL: <https://mcgrawhillprofessionalbusinessblog.com/2018/10/04/whats-the-formula-for-a-successful-management-system/> (accessed: 11.02.2022)
4. Harvey Leibenstein. (1966). Allocative versus "X" Efficiency. *American Economic Review*, 56, 392–415.
5. S. V. Mikheeva. (2003). Некоторые аспекты оценки качества управления. *Методы менеджмента качества*, 3, 29–31.
6. M. Svitkin. (2004). От менеджмента качества – к качеству менеджмента и бизнеса: миф или реальность? *Стандарты и качество*, 1, 14–21.
7. V. Vinokurov, A. Vinokurov. (2005). Качество управления как фактор укрепления рыночных позиций предприятия. *Стандарты и качество*, 12, 49–55.
8. Y. D. Dmirov. (1996). *Квалитетрия и сертификация продукции*. Moscow: Издательство стандартов. 281 p.
9. Peter Drucker. (1967). *The Effective Executive*.
10. Frederick Taylor. (1919). *The Principles of Scientific Management*.
11. James Herbert. (1977). *Leadership: What It Is, What It Takes, and How It Develops*.
12. Gary Hamel. (2011). *The Future of Management*.
13. V. B. Zagorchik. Понятие вектора целей. URL: http://www.opora-tmn.ru/advocacy/GF_TO23.html



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
